



BUXORO VILOYATIDA GASTRONOMIK TURIZMNING HOZIRGI HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH SALOHIYATINI BAHOLASH

Xalim-Zade Azizabonu Shuxratovna

Buxoro davlat texnika universiteti laborantni

E-mail: khalimzadeaziza@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyatida gastronomik turizmning hozirgi holati, resurs bazasi va barqaror rivojlanish salohiyati o'rganilgan. Tadqiqot rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ hujjatlar va xalqaro ilmiy adabiyotlar asosida olib borilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, viloyatda sayyohlar oqimi 2023-yildan 2025-yilgacha jadal o'sgan, turizm eksporti 1,8 baravarga ortgan, ammo gastronomik turizm hali mustaqil mahsulot sifatida shakllanmagan. Viloyatning boy gastronomik merosi, UNESCO ro'yxatidagi meros obyektlari va ijodiy shaharlar tarmog'iga a'zoliigi kuchli tomonlar sifatida, mavsumiylik, malakali kadrlar yetishmasligi, sifat standartlarining yo'qligi va statistik hisobning olib borilmasligi esa kuchsiz tomonlar sifatida aniqlandi. SWOT tahlil va salohiyatni baholash matritsasi asosida gastronomik turizmni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar. Gastronomik turizm, barqaror rivojlanish, Buxoro viloyati, turizm salohiyati, milliy oshxona, SWOT tahlil, madaniy meros, turizm eksporti.

Аннотация. В статье изучено современное состояние, ресурсная база и потенциал устойчивого развития гастрономического туризма в Бухарской области Республики Узбекистан. Исследование основано на официальных статистических данных, нормативных документах и международной научной литературе. Результаты показывают, что туристский поток в область в период с 2023 по 2025 год рос быстрыми темпами, а экспорт туристских услуг увеличился в 1,8 раза, однако гастрономический туризм пока не сформировался как самостоятельный



продукт. Богатое кулинарное наследие, объекты наследия ЮНЕСКО и членство в Сети творческих городов определены как сильные стороны, а сезонность, нехватка квалифицированных кадров, отсутствие стандартов качества и статистического учёта определены как слабые стороны. На основе SWOT анализа и матрицы оценки потенциала предложены приоритетные направления устойчивого развития гастрономического туризма.

Ключевые слова. Гастрономический туризм, устойчивое развитие, Бухарская область, туристский потенциал, национальная кухня, SWOT анализ, культурное наследие, экспорт туристских услуг.

Abstract. The article examines the current state, resource base and sustainable development potential of gastronomic tourism in the Bukhara region of Uzbekistan. The study relies on official statistics, regulatory documents and international academic literature. The results show that tourist flows to the region grew rapidly between 2023 and 2025 and tourism exports grew 1.8 times, yet gastronomic tourism has not yet emerged as an independent product. The rich culinary heritage, UNESCO listed heritage sites and membership in the Creative Cities Network are identified as strengths, while seasonality, shortage of skilled staff, absence of quality standards and lack of statistical accounting are identified as weaknesses. Priority directions for sustainable development are proposed on the basis of SWOT analysis and a potential assessment matrix.

Keywords. Gastronomic tourism, sustainable development, Bukhara region, tourism potential, national cuisine, SWOT analysis, cultural heritage, tourism exports.

KIRISH

So‘nggi yigirma yil ichida gastronomik turizm jahon turizm bozorining eng tez o‘sayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Butunjahon turizm tashkiloti



tomonidan e'lon qilingan yo'riqnomada gastronomik turizm sayyohning oziq ovqat bilan bog'liq faoliyat, mahsulot va tajribalarga asoslangan sayohati sifatida ta'riflanadi va u hududlarning madaniy o'ziga xosligini saqlash hamda mahalliy iqtisodiyotni qo'llab quvvatlashning muhim vositasi deb baholanadi¹. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, taom sayyoh uchun shunchaki ehtiyoj emas, balki hudud madaniyatini his qilish, mahalliy aholi bilan muloqot qilish va sayohatdan olinadigan taassurotning muhim qismidir². Tadqiqotlar sayyohlarning destinatsiya haqidagi umumiy taassurotida gastronomiyaning salmoqli o'rin egallashini tasdiqlaydi. Kivela va Krotts o'tkazgan so'rov natijalariga ko'ra, gastronomik tajribadan qoniqish sayyohning destinatsiyaga qayta tashrif buyurish niyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi³. Shu sababli ko'plab davlatlar milliy oshxonani turizm mahsulotining markaziy elementi sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "Turizm to'g'risida"gi Qonun turizm faoliyatining huquqiy asoslarini, shu jumladan, turizmning turlari va barqaror rivojlanish tamoyillarini mustahkamlagan⁴. 2025 yil 15 maydagi PF 87 son Farmon bilan 2025 yil yakuniga qadar mamlakatga 15,8 million xorijiy sayyoh jalb etish va turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo'yildi⁵. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga 2023 yilda 6,6 million,

¹ Guidelines for the Development of Gastronomy Tourism / World Tourism Organization (UNWTO), Basque Culinary Center. – Madrid: UNWTO, 2019. – 60 p.

² Hall C.M., Sharples L. The consumption of experiences or the experience of consumption? An introduction to the tourism of taste // Food Tourism Around the World: Development, Management and Markets / ed. by C.M. Hall, L. Sharples, R. Mitchell, N. Macionis, B. Cambourne. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2003. – P. 1–24.

³ Kivela J., Crotts J.C. Tourism and gastronomy: Gastronomy's influence on how tourists experience a destination // Journal of Hospitality and Tourism Research. – 2006. – Vol. 30, No. 3. – P. 354–377.

⁴ Turizm to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-4428097> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

⁵ 2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston



2024 yilda 10 milliondan ortiq, 2025 yilda esa 11,7 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan⁶. Buxoro viloyati mamlakat turizm salohiyatida alohida o'rin tutadi. Buxoro shahrining tarixiy markazi 1993 yildan UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan⁷, 2023 yilda esa shahar Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib UNESCO Ijodiy shaharlar tarmog'iga hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati yo'nalishi bo'yicha a'zo bo'ldi⁸. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentabrdagi 543 son qarori bilan viloyatda turizmni rivojlantirishning maxsus dasturi tasdiqlanib, unda 2026 yilgacha xorijiy va mahalliy sayyohlar sonini 5 million nafarga, turizm eksportini 600 million dollarga yetkazish maqsad qilingan. Mazkur qarorning uchinchi ilovasi bevosita Buxoro shahrida "Street Food" gastronomik ko'chasini tashkil etish bo'yicha chora tadbirlar rejasiga bag'ishlangan⁹. Bu hujjat gastronomiyaning viloyat turizm siyosatida rasmiy e'tirof etilganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Buxoro viloyatida gastronomik turizm alohida yo'nalish sifatida hali yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud ilmiy ishlar asosan mamlakat miqyosidagi umumiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, viloyat darajasida resurs bazasi, sayyohlar oqimining tarkibi va barqaror rivojlanish salohiyatini kompleks baholaydigan tadqiqotlar kam. Mazkur maqolaning maqsadi Buxoro viloyatida gastronomik turizmning hozirgi holatini tahlil qilish, uning barqaror rivojlanish salohiyatini baholash va ustuvor yo'nalishlarni asoslashdan iborat.

Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7531559> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

⁶ O'zbekistonga yetti oyda qariyb 7,8 mln xorijiy sayyoh keldi [Elektron resurs] // Sputnik O'zbekiston. – 2026. – 12 avgust. – URL: <https://oz.sputniknews.uz/20260812/uzbekistan-turizm-korsatkichlar-59643662.html> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

⁷ Historic Centre of Bukhara [Electronic resource] // UNESCO World Heritage Centre. – URL: <https://whc.unesco.org/en/list/602> (date of access: 26.08.2026).

⁸ Bukhara: Creative City of Crafts and Folk Art [Electronic resource] // UNESCO Creative Cities Network. – URL: <https://www.unesco.org/en/creative-cities/bukhara> (date of access: 26.08.2026).

⁹ 2022–2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6212874> (murojaat sanasi: 26.08.2026).



Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi. Birinchidan, gastronomik turizm va barqaror rivojlanish nazariyasiga oid adabiyotlarni umumlashtirish. Ikkinchidan, viloyat turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganish. Uchinchidan, viloyatning gastronomik resurs bazasini tizimlashtirish. To'rtinchidan, SWOT tahlil va baholash matritsasi yordamida salohiyatni aniqlash va takliflar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Gastronomik turizm tushunchasi ilmiy adabiyotda 2000 yillarning boshidan faol o'rganila boshlandi. Hjalager va Richards tahriri ostida nashr etilgan to'plam turizm va gastronomiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli tarzda ochib bergan birinchi asarlardan biri hisoblanadi¹⁰. Long tahriridagi to'plamda "kulinar turizm" tushunchasi taom orqali boshqa madaniyatni bilish va his qilish vositasi sifatida talqin qilingan¹¹. Ellis va hammualliflar 2018 yilda mavjud ilmiy adabiyotni tizimli tahlil qilib, gastronomik turizm tadqiqotlarining beshta asosiy yo'nalishini, ya'ni motivatsiya, madaniyat, autentiklik, boshqaruv va marketing hamda destinatsiya yo'nalishlarini ajratib ko'rsatdi¹². Gastronomiyaning destinatsiya marketingidagi o'rni ham keng o'rganilgan. Okumus va hammualliflar Gonkong va Turkiya misolida mahalliy oshxona destinatsiya imijini shakllantirishda muhim vosita bo'lishi mumkinligini, lekin ko'plab hududlar bu imkoniyatdan yetarli foydalanmayotganini ko'rsatdi¹³. Byork va Kauppinen Ryaysenen mahalliy taom destinatsiyaning jozibadorlik

¹⁰ Tourism and Gastronomy / ed. by A.-M. Hjalager, G. Richards. – London: Routledge, 2002. – 240 p.

¹¹ Culinary Tourism / ed. by L.M. Long. – Lexington: University Press of Kentucky, 2004. – 306 p.

¹² Ellis A., Park E., Kim S., Yeoman I. What is food tourism? // Tourism Management. – 2018. – Vol. 68. – P. 250–263.

¹³ Okumus B., Okumus F., McKercher B. Incorporating local and international cuisines in the marketing of tourism destinations: The cases of Hong Kong and Turkey // Tourism Management. – 2007. – Vol. 28, No. 1. – P. 253–261.



manbai ekanligini va sayyohlarning taomga bo'lgan qiziqishi ularning sayohat xulq atvorini o'zgartirishini isbotladi¹⁴.

Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan gastronomik turizm alohida ahamiyat kasb etadi. Sims mahalliy taomning autentiklik hissini kuchaytirishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlashi va shu orqali barqaror turizm tajribasini shakllantirishini ko'rsatdi¹⁵. Everett va Aytchison Kornuoll misolida gastronomik turizm hududiy o'ziga xoslikni saqlash va mustahkamlashga xizmat qilishini aniqladi¹⁶. Butunjahon turizm tashkiloti va BMT Atrof muhit dasturining qo'shma qo'llanmasida barqaror turizmning o'n ikkita maqsadi, jumladan, mahalliy farovonlik, madaniy boylik va resurslardan samarali foydalanish belgilangan bo'lib, ular gastronomik turizmni baholashda ham qo'llanilishi mumkin¹⁷. O'zbekiston olimlari ham so'nggi yillarda gastronomik turizm masalalariga murojaat qilmoqda. Mamlakat miqyosida gastronomik turizmning tarixiy asoslari, milliy taomlarning brend sifatidagi ahamiyati va davlat bilan xususiy sektor hamkorligi masalalari o'rganilgan. Palov madaniyati va an'anasining 2016 yilda UNESCO Nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgani o'zbek oshxonasining xalqaro e'tirofini mustahkamladi¹⁸. Buxoro viloyati bo'yicha agroturizm holatini o'rgangan Rustamov viloyatda agroturizmga ixtisoslashgan korxonalar soni atigi 10 tadan

¹⁴ Björk P., Kauppinen-Räsänen H. Local food: a source for destination attraction // International Journal of Contemporary Hospitality Management. – 2016. – Vol. 28, No. 1. – P. 177–194.

¹⁵ Sims R. Food, place and authenticity: local food and the sustainable tourism experience // Journal of Sustainable Tourism. – 2009. – Vol. 17, No. 3. – P. 321–336.

¹⁶ Everett S., Aitchison C. The role of food tourism in sustaining regional identity: A case study of Cornwall, South West England // Journal of Sustainable Tourism. – 2008. – Vol. 16, No. 2. – P. 150–167.

¹⁷ Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers / United Nations Environment Programme, World Tourism Organization. – Paris; Madrid: UNEP, UNWTO, 2005. – 210 p.

¹⁸ Palov culture and tradition [Electronic resource] // UNESCO Intangible Cultural Heritage: Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity, 2016. – URL: <https://ich.unesco.org/en/RL/palov-culture-and-tradition-01166> (date of access: 26.08.2026).



15 tagacha ekanligini va soha boshlang'ich bosqichda turganini qayd etgan¹⁹. Shu bilan birga, Buxoro viloyatida bevosita gastronomik turizmning resurs bazasi va salohiyatini kompleks baholagan tadqiqotlar hali mavjud emas, bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro viloyati turizm sohasi, predmeti sifatida esa viloyatda gastronomik turizmning holati va barqaror rivojlanish salohiyati tanlandi. Tadqiqot 2023 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, chunki aynan shu davrda pandemiyadan keyingi tiklanish yakunlanib, sayyohlar oqimi barqaror o'sish bosqichiga o'tdi. Tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlarga asoslangan aralash yondashuv qo'llanildi. Ma'lumotlarning asosiy manbalari quyidagilardan iborat. Birinchi guruh manbalar Buxoro viloyati hokimligi va Turizm qo'mitasining rasmiy hisobotlari hamda ular asosida O'zbekiston Milliy axborot agentligi va "Xalq so'zi" gazetasida e'lon qilingan statistik ma'lumotlar. Ikkinchi guruh manbalar O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bo'lib, ular lex.uz milliy ma'lumotlar bazasidan olindi. Uchinchi guruh manbalar UNESCO va Butunjahon turizm tashkilotining rasmiy hujjatlari. To'rtinchi guruh manbalar xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar. Tahlil quyidagi usullar yordamida amalga oshirildi. Statistik tahlil usuli sayyohlar oqimi, turizm eksporti va joylashtirish vositalari sonining dinamikasini o'rganish uchun qo'llanildi. O'sish sur'ati oddiy zanjirli indeks orqali, ya'ni joriy yil ko'rsatkichining oldingi yil ko'rsatkichiga nisbati sifatida hisoblandi. Kontent tahlil usuli normativ hujjatlarda gastronomik turizmga oid chora tadbirlarni aniqlash uchun ishlatildi. Resurslarni inventarizatsiya qilish usuli viloyatning gastronomik resurslarini turkumlarga ajratish imkonini berdi. Taqqoslash usuli viloyat ko'rsatkichlarini

¹⁹ Rustamov A. Buxoro viloyatida agroturizm rivojlanishining joriy holati (2025-yil statistik ko'rsatkichlari asosida tahlil) // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2026. – № 17. – B. 258–260. – DOI: 10.54613/ku.v17i.1541.



respublika ko'rsatkichlari va dastur maqsadlari bilan solishtirish uchun ishlatildi. SWOT tahlil usuli kuchli va kuchsiz tomonlarni, imkoniyat va tahdidlarni tizimlashtirish uchun qo'llanildi.

Salohiyatni baholash uchun muallif tomonidan besh mezonli sifat matritsasi ishlab chiqildi. Mezonlar Butunjahon turizm tashkiloti yo'riqnomasida keltirilgan gastronomik turizm rivojlanishining asosiy omillariga tayanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi. Resurs bazasi, ya'ni taom, mahsulot va an'analarning boyligi. Infratuzilma, ya'ni ovqatlanish shoxobchalari, bozorlar va ishlab chiqarish obyektlari. Institutsional muhit, ya'ni normativ hujjatlar va boshqaruv tuzilmalari. Bozor talabi, ya'ni sayyohlar oqimi va uning tarkibi. Barqarorlik omillari, ya'ni mahalliy aholining ishtiroki, ekologik yuk va madaniy merosning saqlanishi. Har bir mezon uchta darajada, ya'ni yuqori, o'rta va past darajada baholandi. Baholash muallifning hujjatlar va statistik ma'lumotlar asosidagi ekspert xulosasiga asoslanadi, shu sababli u sifat xarakteriga ega. Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim. Birinchidan, rasmiy statistikada gastronomik turizm alohida hisobga olinmaydi, shuning uchun sayyohlarning taomga sarflagan xarajatlari va gastronomik maqsadda tashrif buyurganlar ulushi to'g'risida aniq ma'lumot mavjud emas. Ikkinchidan, 2025 yil bo'yicha ma'lumotlar yilning dastlabki o'n bir oyini qamrab oladi. Uchinchidan, tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlarga asoslangani sababli sayyohlar va tadbirkorlar o'rtasida birlamchi so'rov o'tkazilmagan. Bu cheklovlar keyingi tadqiqotlar uchun yo'nalish sifatida qaraladi.

TAHLIL

Buxoro viloyati turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili so'nggi uch yilda barqaror va jadal o'sish kuzatilganini ko'rsatdi. 2023 yilda viloyatga 1 million 387 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan, turizm xizmatlari eksporti 339,1 million AQSH dollarini tashkil etgan, respublika hududlaridan 3





million 489 ming nafar mahalliy sayyoh kelgan. Shu davrda viloyatda 541 ta mehmonxona, 14 ming mehmon o'rni va sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi 116 ta restoran faoliyat yuritgan. Solishtirish uchun, 2016 yilda xorijiy sayyohlar soni atigi 169,6 ming nafar, 2017 yilda esa turizm eksporti 37,2 million dollar bo'lgan²⁰. 2024 yilda viloyatga 1 million 745 ming 200 nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, bu 2023 yildagiga nisbatan 358 ming nafarga ko'p. Mahalliy sayyohlar soni 4 million 10 ming nafarga oshgan. Xorijiy sayyohlarga ko'rsatilgan xizmatlar hisobiga turizm eksporti 436,3 million AQSH dollarini tashkil etgan. Shu yilning o'zida viloyatda 74 ta yangi joylashtirish vositasi, ya'ni mehmonxona, xostel va oilaviy mehmon uylari ishga tushirilgan²¹. 2025 yilning dastlabki o'n bir oyida viloyatga 2 million 251 ming 500 nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan, turizm eksporti 614,1 million AQSH dollariga yetgan. Viloyatda faoliyat yuritayotgan turoperatorlar soni 218 taga yetkazilgan²². Asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi va muallif tomonidan hisoblangan o'sish sur'atlari 1 jadvalda, xorijiy sayyohlar oqimi va turizm eksportining o'zgarishi esa 1 rasmda keltirilgan.

1-jadval.

Buxoro viloyati turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi²³

²⁰ "Boqiy Buxoro" tarixiy-etnografik parki barpo etiladi [Elektron resurs] // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). – 2024. – 31 yanvar. – URL: https://uza.uz/oz/posts/boqiy-buxoro-tarixiy-etnografik-parki-barpo-etiladi_563447 (murojaat sanasi: 26.08.2026).

²¹ Gid-hamrohning soni emas, sozi kerak [Elektron resurs] // Xalq so'zi. – 2025. – URL: <https://xs.uz/uz/post/gid-hamrohning-soni-emas-sozi-kerak> (murojaat sanasi: 26.08.2026).


²² Turizm: yutuqlar, muammolar va rejalar [Elektron resurs] // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). – 2025. – 20 noyabr. – URL: https://uza.uz/oz/posts/turizm-yutuqlar-muammolar-va-rejalar_785768 (murojaat sanasi: 26.08.2026).

²³ Manba: UZA (2024-yil 31-yanvar; 2025-yil 20-noyabr) hamda "Xalq so'zi" (2025) materiallari asosida muallif tomonidan hisoblangan. 2025-yil ko'rsatkichlari yanvar–noyabr oylarini qamrab oladi, shu sababli 2024-yil bilan taqqoslash shartli xarakterga ega.



Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil (11 oy)	2024-yil 2023- yilga nisbatan, foiz	2025-yil 2024- yilga nisbatan, foiz
Xorijiy sayyohlar, ming nafar	1 387,0	1 745,2	2 251,5	125,8	129,0
Mahalliy sayyohlar, ming nafar	3 489,0	4 010,0	ma'lumot yo'q	114,9	...
Jami sayyohlar, ming nafar	4 876,0	5 755,2	ma'lumot yo'q	118,0	...
Turizm eksporti, mln AQSH dollari	339,1	436,3	614,1	128,7	140,7
Bir xorijiy sayyohga to'g'ri keladigan eksport, AQSH dollari	244,5	250,0	272,8	102,3	109,1
Yangi joylashtirish vositalari, dona	35	74	ma'lumot yo'q	211,4	...





1-rasm. Buxoro viloyatiga xorijiy sayyohlar oqimi va turizm eksporti dinamikasi²⁴

Tahlil bir nechta muhim qonuniyatni ochib berdi. Birinchidan, xorijiy sayyohlar oqimi mahalliy sayyohlar oqimiga nisbatan tezroq o'smoqda. 2024 yilda xorijiy sayyohlar soni 25,8 foizga, mahalliy sayyohlar soni esa 14,9 foizga oshgan. Natijada xorijiy sayyohlarning umumiy oqimdagi ulushi 2023 yildagi 28,4 foizdan 2024 yilda 30,3 foizga ko'tarilgan. 2025 yilning o'n bir oyida esa xorijiy sayyohlar soni 2024 yilning to'liq yakunidan 29 foizga oshib ketgan. Ikkinchidan, turizm eksporti sayyohlar sonidan tezroq o'smoqda. 2024 yilda eksport 28,7 foizga, 2025 yilda esa 40,7 foizga oshgan. Buning natijasida bir xorijiy sayyohga to'g'ri keladigan eksport 2023 yildagi 244,5 dollardan 2025 yilda 272,8 dollarga, ya'ni 11,6 foizga ko'tarilgan. Bu ko'rsatkich sayyohlarning hududda ko'proq xizmat sotib olayotganini bildiradi. Ovqatlanish xarajatlari sayyoh sarfining muhim qismi ekanligini hisobga olsak, ushbu o'sish gastronomik xizmatlarga talab kengayayotganidan dalolat beradi.

²⁴ Manba: 1 jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Dastlabki ma'lumotlar: UZA (2024-yil 31-yanvar; 2025-yil 20-noyabr), "Xalq so'zi" (2025).



Uchinchidan, viloyat ko'rsatkichlarini respublika ko'rsatkichlari bilan taqqoslash qiziqarli natija berdi. Mamlakat bo'yicha xorijiy sayyohlar soni 2023 yildagi 6,6 milliondan 2024 yilda 10 milliondan ortiqqa, ya'ni 50 foizdan ko'proqqa o'sgan²⁵, turizm eksporti esa 3,5 milliard dollarga yetgan²⁶. Demak, Buxoro viloyatida xorijiy sayyohlar soni respublika o'rtacha sur'atidan sekinroq o'sgan va viloyatning umumiy oqimdagi ulushi 21 foizdan qariyb 17 foizga kamaygan. Bu holat respublika miqyosidagi o'sish asosan qo'shni davlatlardan kelayotgan sayyohlar hisobiga ta'minlanayotgani, Buxoroga esa asosan uzoq xorijdan madaniy maqsadda sayohat qiluvchilar kelayotgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, respublika bo'yicha bir xorijiy sayyohga to'g'ri keladigan eksport qariyb 350 dollarni tashkil etgan bo'lsa, Buxoro viloyatida bu ko'rsatkich 250 dollar atrofida. Farqning sababi shundaki, sayyoh sarfini bir necha shahar o'rtasida taqsimlaydi. Sayyohning Buxoroda qolish muddatini uzaytirish va unga qo'shimcha, jumladan, gastronomik xizmatlarni taklif etish viloyatning bu sarfdagi ulushini oshirishning asosiy yo'li hisoblanadi.

To'rtinchidan, dastur maqsadlari bilan taqqoslash viloyat 543 son qarorda 2026 yil uchun belgilangan ikkala asosiy maqsadga muddatidan oldin erishganini ko'rsatdi. Jami sayyohlar sonini 5 million nafarga yetkazish maqsadi 2024 yilda, turizm eksportini 600 million dollarga yetkazish maqsadi esa 2025 yilda bajarilgan. Qarorning birinchi ilovasidagi yillik maqsadli ko'rsatkichlar yanada tez ortda qoldirilgan. Unda 2024 yil uchun 1 million 200 ming nafar, 2025 yil uchun 1 million 500 ming nafar xorijiy sayyoh hamda mos ravishda 230

²⁵ O'zbekistonga yetti oyda qariyb 7,8 mln xorijiy sayyoh keldi [Elektron resurs] // Sputnik O'zbekiston. – 2026. – 12 avgust. – URL: <https://oz.sputniknews.uz/20260812/uzbekistan-turizm-korsatkichlar-59643662.html> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

²⁶ Turizm va investitsiya masalalari muhokama qilindi [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2025. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8049> (murojaat sanasi: 26.08.2026).



va 270 million dollar eksport rejalashtirilgan edi²⁷. Amalda 2024 yilda xorijiy sayyohlar soni rejadan 45 foizga, eksport 90 foizga, 2025 yilning o'n bir oyida esa mos ravishda 50 foizga va 127 foizga ortiq bo'lgan. Bu holat viloyat turizm dasturining maqsadli ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish va ularni yangi sifat ko'rsatkichlari, jumladan, gastronomik turizm ko'rsatkichlari bilan to'ldirish zarurligini bildiradi. Viloyat uchun 2030 yilga qadar jami sayyohlar sonini 10 milliondan oshirish va xorijiy sayyohlar sonini 5 million nafarga yetkazish vazifasi ham qo'yilgan²⁸. 2025 yil yakuniga taxminan 2,4 million nafar xorijiy sayyoh kelganini hisobga olsak, ushbu maqsadga erishish uchun keyingi besh yilda yiliga o'rtacha 16 foizdan ortiq o'sish talab etiladi. Bu maqsad haqiqiy, ammo u sayyohlar uchun yangi jozibadorlik manbalarini, shu jumladan, gastronomik mahsulotlarni yaratishni taqozo etadi. Beshinchidan, sayyohlar oqimining tarkibi gastronomik turizm mahsulotini shakllantirishda ikki xil talabni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Viloyatga tashrif buyuruvchilarning qariyb 70 foizini mahalliy sayyohlar tashkil etadi. Xorijiy sayyohlar uchun autentiklik, tarixiy hikoya va oziq ovqat xavfsizligi muhim bo'lsa, mahalliy sayyohlar uchun narxning maqbulligi, oilaviy dam olish imkoniyati va tanish taomlarning sifati muhimroq. Shuningdek, 2023 yilda sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi 116 ta restoranga qariyb 4,9 million sayyoh to'g'ri kelgani, ya'ni har bir restoranga yiliga o'rtacha 42 mingdan ortiq sayyoh to'g'ri kelgani ovqatlanish infratuzilmasiga yuk yuqori ekanligini va uni sifat jihatidan kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

²⁷ 2022–2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6212874> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

²⁸ "Boqiy Buxoro" tarixiy-etnografik parki barpo etiladi [Elektron resurs] // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). – 2024. – 31 yanvar. – URL: https://uza.uz/oz/posts/boqiy-buxoro-tarixiy-etnografik-parki-barpo-etiladi_563447 (murojaat sanasi: 26.08.2026).

NATIJALAR

Viloyatning gastronomik resurs bazasini inventarizatsiya qilish natijalari 2 jadvalda umumlashtirilgan. Resurslar to'rt turkumga ajratildi. Bular an'anaviy taomlar va mahsulotlar, oziq ovqat ishlab chiqarish an'analari, gastronomik tadbir va makonlar hamda institutsional resurslar. Inventarizatsiya natijalari viloyatda gastronomik resurslar yetarli darajada boy ekanligini, lekin ular turizm mahsulotiga to'liq aylantirilmaganini ko'rsatdi. Buxoro palovi va halvasi mamlakat miqyosida taniqli bo'lsa ham, ular uchun rasmiy geografik ko'rsatkich yoki sifat belgisi ro'yxatdan o'tkazilmagan. Sayyohlar taomni asosan restoran va choyxonalarda iste'mol qiladi, ammo taomning tayyorlanish jarayonini ko'rish, unda ishtirok etish yoki mahsulot ishlab chiqaruvchisi bilan uchrashish imkoniyati kam. 2025 yilda o'tkazilgan birinchi Buxoro biennalesi "Singan qalblar uchun retseptlar" nomi ostida o'tib, unda oshpazlik va san'at uyg'unlashtirilgan dasturlar taqdim etildi, bu gastronomiyaning madaniy tadbirlar bilan bog'lanish imkoniyatini amalda ko'rsatdi²⁹.

2-jadval.

Buxoro viloyatining gastronomik turizm resurslari³⁰

Resurs turkumi	Asosiy elementlar	Turizmida foydalanish darajasi
An'anaviy taomlar va mahsulotlar	Buxoro palovi (oshi sofi), Buxoro halvasi, shirmoy non, qatlama,	Restoranlarda keng, ammo hikoya va brend sifatida kam foydalaniladi

²⁹ Bukhara Biennial: Recipes for Broken Hearts [Electronic resource] // Bukhara Biennial. – 2025. – URL: <https://bukharabiennial.uz> (date of access: 26.08.2026).

³⁰ Manba: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son qarori, UNESCO va Buxoro biennalesi rasmiy ma'lumotlari, UZA (2024-yil 31-yanvar; 2025-yil 20-noyabr) materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan.





	shulla, sut mahsulotlari, quritilgan mevalar	
Ishlab chiqarish an'analari	Novvoylik, halvo tayyorlash, qorako'l qo'ychilik mahsulotlari, bog'dorchilik, vohaning suv va qumli hududlar chegarasidagi qishloq xo'jaligi	Sayyohlar uchun ochiq ustaxona va fermer tashriflari yagona holatlarda
Tadbir va makonlar	Tarixiy markazdagi bozor va karvonsaroylar, "Bukhara food caravan" gastronomik sayli, 2025 yildagi Buxoro biennalesi doirasidagi oshpazlik dasturlari, rejalashtirilgan "Street Food" ko'chasi	Qisman foydalaniladi, doimiy gastronomik marshrut mavjud emas
Institutsional resurslar	543 son qaror, viloyat Turizm va madaniy meros boshqarmasi, 218 ta turoperator, UNESCO Ijodiy shahar maqomi, oliy ta'lim muassasalarining turizm yo'nalishlari	Shakllangan, ammo gastronomik turizmga ixtisoslashgan tuzilma yo'q

Normativ hujjatlarning kontent tahlili viloyatda gastronomik turizmga oid chora tadbirlar rejalashtirilganini, ammo ular asosan bitta obyektga, ya'ni gastronomik ko'chaga qaratilganini ko'rsatdi. 543 son qarorning uchinchi ilovasida Islom Karimov ko'chasida gastronomik ko'cha tashkil etish, ovqatlanish shoxobchalari menyusini uch tilda tayyorlash, Buxoro vinosi degustatsiyasini yo'lga qo'yish, milliy taomlar obrazidagi selfi maydonchalarini o'rnatish hamda "Bukhara food caravan" gastronomik saylini o'tkazish nazarda



tutilgan. Qarorning ikkinchi ilovasida esa Rossiya bozori uchun gastronomik va enoturizm yo'nalishidagi turpaketlar tayyorlash vazifasi qo'yilgan³¹. Biroq gastronomik turizm bo'yicha alohida maqsadli ko'rsatkichlar, masalan, gastronomik marshrutlar soni, sertifikatlangan ovqatlanish shoxobchalari soni yoki sayyohlarning taomga sarflagan o'rtacha xarajati belgilanmagan. Respublika miqyosida ham bu masala dolzarb bo'lib, 2025 yil 9 aprelda Prezident raisligida o'tkazilgan yig'ilishda ayrim viloyatlarda gastronomik turizm markazlari mavjud emasligi tanqid qilingan³². To'plangan ma'lumotlar asosida o'tkazilgan SWOT tahlil natijalari 3 jadvalda, salohiyatni baholash matritsasi natijalari esa 4 jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Buxoro viloyatida gastronomik turizmning SWOT tahlili³³

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar
Ming yillik oshxona an'analari va taniqli taomlar. UNESCO Butunjahon merosi va Ijodiy shaharlar tarmog'i maqomi. Sayyohlar oqimining jadal o'sishi. Turizm eksportining yuqori sur'ati. 218 ta turoperator va rivojlangan joylashtirish tarmog'i. Palov madaniyatining UNESCO nomoddiy meros ro'yxatida bo'lishi.	Gastronomik turizmning statistik hisobga olinmasligi. Sifat va xizmat standartlarining yo'qligi. Malakali oshpaz va gid kadrlarining yetishmasligi. Mavsumiylik, yozgi jazirama davrida oqimning keskin kamayishi. Gastronomik marshrut va brendning shakllanmaganligi. Mahalliy mahsulotlar

³¹ 2022–2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6212874> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

³² Kapsulali uylarni tashkil etishga 10 mln so'mgacha subsidiya beriladi [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2025. – 9 aprel. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2025/04/09/tourism> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

³³ Manba: 1 va 2 jadvallar ma'lumotlari hamda normativ hujjatlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.



	uchun geografik ko'rsatkichlarning ro'yxatdan o'tkazilmagani.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Jahon bozorida gastronomik turizmga talabning o'sishi. Davlat siyosatida turizmning ustuvorligi va soliq imtiyozlari. Biennale va festivallar orqali xalqaro e'tiborning ortishi. Agroturizm va hunarmandchilik bilan integratsiya. Raqamli platformalar orqali targ'ibot. Samarqand va Xiva bilan yagona gastronomik marshrut yaratish.	Ommaviy turizm ta'sirida taomlar autentikligining yo'qolishi. Tarixiy markazga ortiqcha yuk va mahalliy aholining siqib chiqarilishi. Oziq ovqat xavfsizligi bilan bog'liq voqealar obro'ga zarar yetkazishi. Suv resurslarining cheklanganligi va iqlim o'zgarishi. Qo'shni hududlar bilan raqobatning kuchayishi. Narxlarining tez o'sishi va mahalliy sayyohlar uchun qimmatlashuv.

4-jadval.

**Buxoro viloyatida gastronomik turizm salohiyatini baholash
matritsasi³⁴**

Mezon	Daraja	Asoslash
Resurs bazasi	Yuqori	Boy taomnoma, taniqli mahsulotlar, tarixiy makonlar va UNESCO maqomlari mavjud

³⁴ Manba: Guidelines for the Development of Gastronomy Tourism (UNWTO, 2019) mezonlari asosida muallifning ekspert bahosi.





Infratuzilma	O'rta	Ovqatlanish shoxobchalari yetarli, ammo gastronomik ustaxona, degustatsiya maydonchalari va tematik marshrutlar kam
Institutsional muhit	O'rta	Normativ asos va boshqaruv tuzilmalari bor, ammo gastronomik turizmga ixtisoslashgan dastur va ko'rsatkichlar yo'q
Bozor talabi	Yuqori	Sayyohlar oqimi va eksport jadal o'smoqda, o'rtacha sarf ortmoqda
Barqarorlik omillari	Past	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar zanjiriga kam jalb qilingan, ekologik va ijtimoiy ta'sir monitoringi yo'q, mavsumiylik yuqori

SWOT tahlil shuni ko'rsatadiki, viloyatning kuchli tomonlari asosan resurs va talab bilan bog'liq bo'lsa, kuchsiz tomonlari tashkiliy va institutsional xarakterga ega. Boshqacha aytganda, muammo resurslarning yo'qligida emas, balki ularni boshqarish va turizm mahsulotiga aylantirish mexanizmlarining yetarli emasligida. Matritsa natijalariga ko'ra, beshta mezondan ikkitasi yuqori, ikkitasi o'rta va bittasi past darajada baholandi. Eng zaif bo'g'in barqarorlik omillari bo'lib, aynan shu yo'nalish barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan birlamchi e'tiborni talab qiladi. Resurs bazasi va bozor talabining yuqori darajasi esa viloyatda gastronomik turizmni tez muddatda mustaqil mahsulot sifatida shakllantirish uchun yetarli asos borligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar xulosalari bilan solishtirilganda bir qator muhim jihatlar namoyon bo'ladi. Birinchidan, Buxoro viloyatida gastronomik resurslarning boyligi bilan ulardan turizmga foydalanish darajasi o'rtasidagi farq Okumus va hammualliflar Turkiya misolida aniqlagan holatga





o'xshaydi. U yerda ham boy oshxona merosi destinatsiya marketingida yetarli aks etmagan edi. Bu shuni ko'rsatadiki, gastronomik turizm resurslar mavjud bo'lgani uchun o'z o'zidan rivojlanmaydi, balki maqsadli boshqaruv va marketing talab qiladi. Ikkinchidan, viloyatda sayyohlar oqimining jadal o'sishi ham imkoniyat, ham tahdid sifatida qaralishi lozim. Butunjahon turizm tashkiloti yo'riqnomasida ta'kidlanganidek, gastronomik turizm barqaror bo'lishi uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar, oshpazlar va jamoalar qiymat zanjirining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak. Buxoroda hozircha taom asosan yakuniy mahsulot sifatida sotilmoqda, uning ortidagi ishlab chiqaruvchi, fermer va hunarmand esa sayyoh uchun ko'rinmas bo'lib qolmoqda. Sims ta'kidlaganidek, aynan mahalliy mahsulot bilan bevosita bog'lanish sayyohda autentiklik hissini uyg'otadi va hudud iqtisodiyotiga ko'proq foyda keltiradi. Shu sababli gastronomik turizmni rivojlantirishda restoranlar soni emas, balki zanjirning qanchalik mahalliy ekanligi asosiy ko'rsatkich bo'lishi kerak.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari statistik hisob muammosini yaqqol ko'rsatdi. Rasmiy statistikada gastronomik turizm alohida yo'nalish sifatida kuzatilmaydi. Bu holat nafaqat ilmiy tadqiqotlarni, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ham qiyinlashtiradi. Butunjahon turizm tashkilotining 2012 yilgi global hisobotida gastronomik turizmning iqtisodiy ta'sirini o'lchash va uni destinatsiya strategiyasining tarkibiy qismi sifatida rejalashtirish zarurligi ta'kidlangan edi³⁵. Buxoro viloyatida bunday hisobni yo'lga qo'yish gastronomik turizmning haqiqiy iqtisodiy hissasini aniqlash imkonini beradi. To'rtinchidan, viloyatning UNESCO Ijodiy shaharlar tarmog'idagi maqomi hunarmandchilik yo'nalishi bo'yicha berilgan bo'lsa ham, u gastronomik turizm uchun ham muhim imkoniyat yaratadi. Tarmoqda gastronomiya yo'nalishi bo'yicha e'tirof etilgan shaharlar tajribasi, masalan, taomlar va hunarmandchilik

³⁵ Global Report on Food Tourism: AM Reports, Volume four / World Tourism Organization (UNWTO). – Madrid: UNWTO, 2012. – 60 p.



mahsulotlarini yagona madaniy mahsulotga birlashtirish amaliyoti Buxoro uchun bevosita qo'llanilishi mumkin. Buxoro kulolchiligi va zardo'zligi bilan Buxoro taomlarini bir marshrutda birlashtirish sayyohning hududda qolish muddatini uzaytirishga xizmat qiladi. Respublika miqyosida ham xorijiy sayyohlarning mamlakatda bir kun ko'proq qolishi yillik turizm eksportini sezilarli oshirishi rasmiy darajada e'tirof etilgan³⁶.

Beshinchidan, mavsumiylik masalasi alohida muhokamani talab qiladi. Buxoro iqlimi yozgi oylarda ekskursiya turizmini cheklaydi, ammo gastronomik turizm uchun bu davr yangi imkoniyat bo'lishi mumkin. Kechki gastronomik dasturlar, mavsumiy meva va sabzavot festivallari, yoz taomlariga bag'ishgan tadbirlar oqimni yil davomida tekislashga yordam beradi. Everett va Aytchison Kornuoll misolida gastronomik turizm turistik mavsumni uzaytirishga xizmat qilishini qayd etgan edi, bu tajriba Buxoro uchun ham ahamiyatlidir. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalar viloyat turizm dasturini takomillashtirishda, xususan, gastronomik turizm bo'yicha alohida yo'nalish va maqsadli ko'rsatkichlarni kiritishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotning ikkilamchi ma'lumotlarga asoslangani uning cheklovi hisoblanadi. Keyingi bosqichda sayyohlar, restoran egalari va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida so'rov o'tkazish, sayyohlarning taomga sarflagan xarajatlarini aniqlash va gastronomik motivatsiyaning ulushini o'lchash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Buxoro viloyati turizm sohasi 2023 yildan 2025 yilgacha jadal rivojlanib, xorijiy sayyohlar soni yiliga 26 foizdan 29 foizgacha, turizm eksporti esa 29 foizdan 41

³⁶ Turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2023. – 29 mart. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6095> (murojaat sanasi: 26.08.2026).



foizgacha o'sdi, bir xorijiy sayyohga to'g'ri keladigan eksport 244,5 dollardan 272,8 dollarga ko'tarildi va viloyat 2026 yil uchun belgilangan sayyohlar soni hamda eksport maqsadlariga muddatidan oldin erishdi. Viloyat boy gastronomik resurs bazasiga ega bo'lib, u an'anaviy taomlar, ishlab chiqarish an'analari, madaniy tadbirlar va institutsional asoslarni o'z ichiga oladi. Biroq gastronomik turizm hali mustaqil turizm mahsuloti sifatida shakllanmagan, u statistik hisobga olinmaydi, sifat standartlari va tematik marshrutlar mavjud emas. Salohiyatni baholash matritsasi resurs bazasi va bozor talabini yuqori, infratuzilma va institutsional muhitni o'rta, barqarorlik omillarini esa past darajada baholadi.

Natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, viloyat turizm dasturi tarkibida gastronomik turizmni rivojlantirishning alohida yo'nalishini shakllantirish va unga maqsadli ko'rsatkichlar, ya'ni gastronomik marshrutlar soni, sertifikatlangan ovqatlanish shoxobchalari soni, gastronomik tadbirlar ishtirokchilari soni va sayyohlarning taomga sarflagan o'rtacha xarajatini kiritish lozim. Ikkinchidan, viloyat statistika boshqarmasi va Turizm va madaniy meros boshqarmasi hamkorligida gastronomik turizmni hisobga olish tizimini yo'lga qo'yish, buning uchun joylashtirish vositalaridagi mehmonlar so'rovnomasiga gastronomik motivatsiya va xarajatlarga oid savollarni qo'shish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, Buxoro palovi, Buxoro halvasi va shirmoy non kabi mahsulotlar uchun geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish va ularni himoya qilish. Bu mahsulotlarning autentikligini saqlash bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning daromadini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ovqatlanish shoxobchalari uchun ixtiyoriy sifat va xavfsizlik standartini ishlab chiqish hamda ularni maxsus belgi bilan sertifikatlash. Sertifikatlangan shoxobchalar ro'yxati sayyohlar uchun raqamli platformalarda joylashtirilishi kerak. Beshinchidan, tarixiy markaz, bozorlar, hunarmandchilik ustaxonalari va atrof tumanlardagi fermer xo'jaliklarini



birlashtiruvchi kamida uchta tematik gastronomik marshrutni ishlab chiqish. Marshrutlarga taom tayyorlash mahorat darslari, novvoyxona va halvo ustaxonalariga tashrif hamda fermer mahsulotlarini degustatsiya qilish kiritilishi lozim. Oltinchidan, mavsumiylikni yumshatish maqsadida yozgi oylarda kechki gastronomik dasturlar va mavsumiy mahsulot festivallarini o'tkazish, ularni Buxoro biennalesi va boshqa madaniy tadbirlar bilan muvofiqlashtirish. Yettinchidan, oliy ta'lim muassasalari va kasb hunar maktablarida gastronomik gid va milliy oshpazlik yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish dasturlarini tashkil etish. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi Buxoro viloyatida gastronomik turizmni sayyohlar oqimi o'sishining passiv ishtirokchisidan hudud iqtisodiyoti va madaniy merosini barqaror rivojlantirishning faol omiliga aylantirish imkonini beradi. Keyingi tadqiqotlar birlamchi so'rov ma'lumotlari asosida gastronomik turizmning iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholashga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Guidelines for the Development of Gastronomy Tourism / World Tourism Organization (UNWTO), Basque Culinary Center. – Madrid: UNWTO, 2019. – 60 p.
2. Hall C.M., Sharples L. The consumption of experiences or the experience of consumption? An introduction to the tourism of taste // Food Tourism Around the World: Development, Management and Markets / ed. by C.M. Hall, L. Sharples, R. Mitchell, N. Macionis, B. Cambourne. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2003. – P. 1–24.
3. Kivela J., Crofts J.C. Tourism and gastronomy: Gastronomy's influence on how tourists experience a destination // Journal of Hospitality and Tourism Research. – 2006. – Vol. 30, No. 3. – P. 354–377.



4. Turizm to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-4428097> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

5. 2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7531559> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

6. O'zbekistonga yetti oyda qariyb 7,8 mln xorijiy sayyoh keldi [Elektron resurs] // Sputnik O'zbekiston. – 2026. – 12 avgust. – URL: <https://oz.sputniknews.uz/20260812/uzbekistan-turizm-korsatkichlar-59643662.html> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

7. Historic Centre of Bukhara [Electronic resource] // UNESCO World Heritage Centre. – URL: <https://whc.unesco.org/en/list/602> (date of access: 26.08.2026).

8. Bukhara: Creative City of Crafts and Folk Art [Electronic resource] // UNESCO Creative Cities Network. – URL: <https://www.unesco.org/en/creative-cities/bukhara> (date of access: 26.08.2026).

9. 2022–2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6212874> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

10. Tourism and Gastronomy / ed. by A.-M. Hjalager, G. Richards. – London: Routledge, 2002. – 240 p.



11. Culinary Tourism / ed. by L.M. Long. – Lexington: University Press of Kentucky, 2004. – 306 p.
12. Ellis A., Park E., Kim S., Yeoman I. What is food tourism? // Tourism Management. – 2018. – Vol. 68. – P. 250–263.
13. Okumus B., Okumus F., McKercher B. Incorporating local and international cuisines in the marketing of tourism destinations: The cases of Hong Kong and Turkey // Tourism Management. – 2007. – Vol. 28, No. 1. – P. 253–261.
14. Björk P., Kauppinen-Räsänen H. Local food: a source for destination attraction // International Journal of Contemporary Hospitality Management. – 2016. – Vol. 28, No. 1. – P. 177–194.
15. Sims R. Food, place and authenticity: local food and the sustainable tourism experience // Journal of Sustainable Tourism. – 2009. – Vol. 17, No. 3. – P. 321–336.
16. Everett S., Aitchison C. The role of food tourism in sustaining regional identity: A case study of Cornwall, South West England // Journal of Sustainable Tourism. – 2008. – Vol. 16, No. 2. – P. 150–167.
17. Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers / United Nations Environment Programme, World Tourism Organization. – Paris; Madrid: UNEP, UNWTO, 2005. – 210 p.
18. Palov culture and tradition [Electronic resource] // UNESCO Intangible Cultural Heritage: Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity, 2016. – URL: <https://ich.unesco.org/en/RL/palov-culture-and-tradition-01166> (date of access: 26.08.2026).



19. Rustamov A. Buxoro viloyatida agroturizm rivojlanishining joriy holati (2025-yil statistik ko'rsatkichlari asosida tahlil) // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2026. – № 17. – B. 258–260. – DOI: 10.54613/ku.v17i.1541.

20. “Boqiy Buxoro” tarixiy-etnografik parki barpo etiladi [Elektron resurs] // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). – 2024. – 31 yanvar. – URL: https://uza.uz/oz/posts/boqiy-buxoro-tarixiy-etnografik-parki-barpo-etiladi_563447 (murojaat sanasi: 26.08.2026).

21. Gid-hamrohning soni emas, sozi kerak [Elektron resurs] // Xalq so'zi. – 2025. – URL: <https://xs.uz/uz/post/gid-hamrohning-soni-emam-sozi-kerak> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

22. Turizm: yutuqlar, muammolar va rejalar [Elektron resurs] // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). – 2025. – 20 noyabr. – URL: https://uza.uz/oz/posts/turizm-yutuqlar-muammolar-va-rejalar_785768 (murojaat sanasi: 26.08.2026).

23. Turizm va investitsiya masalalari muhokama qilindi [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2025. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8049> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

24. Bukhara Biennial: Recipes for Broken Hearts [Electronic resource] // Bukhara Biennial. – 2025. – URL: <https://bukharabiennial.uz> (date of access: 26.08.2026).

25. Kapsulali uylarni tashkil etishga 10 mln so'mgacha subsidiya beriladi [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2025. – 9 aprel. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2025/04/09/tourism> (murojaat sanasi: 26.08.2026).

26. Global Report on Food Tourism: AM Reports, Volume four / World Tourism Organization (UNWTO). – Madrid: UNWTO, 2012. – 60 p.



27. Turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2023. – 29 mart. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6095> (murojaat sanasi: 26.08.2026).